



SHAFFOF JAMYAT SARI: KORRUPSIYAGA QARSHI
CHORALAR

Ilmiy rahbar: Falsafa fanlari doktori (Phd) dotsent

Xojiyev Tunis Nurkosimovich

O'zMU Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi

(ma'naviyat asoslari) I kurs magistr talabasi ***Qahramonova Zebiniso***

Annotatsiya: Berilgan maqolada korrupsiya va shaffof jamiyat qanday bo'lishi, qomusiy olimlarimiz fikri, korrupsiyani bartaraf qilishdagi harakatlar O'zbekiston misolida qabul qilingan qaror, farmonlar va unga qarshi chora-tadbirlar haqida berib o'tilgan.

Kalit so'zlari: Korrupsiya, BMT, XXI asr, global muammo, qonunlar, memorandum, jazo, "Halolik vaksinasi".

Annotation: The article discusses what corruption and transparent society should be like, the options of our scholars, actions to eliminate corruption, decisions, decrees and measure against it, taken in the case of Uzbekistan.

Key words: Corruption, BMT, XXI century, global problem, laws, memorandum, punishment, "Honesty vaccine".

Korrupsiya – XXI asrda global muammo sifatida davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Birlashgan Millatlar ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'ylab yillik pora miqdori 1 trillion AQSh dollarni tashkil etadi.¹

Bugun biz mukkamal va yetuk bir rivojlangan jamiyat qurmoqchi bo'lsak albatta har bir insondan harakat talab qilinadi. Korrupsiya bugungi kunda keng tarqalgan jinoyatchilikning an'anaviy va keng tarqalgan turi hisoblanadi. "Hokimiyat organlarining jinoyatga aralashib qolishi rivojlanayotgan jamiyat uchun eng jiddiy

¹ fayllar.org



xavf – xatarlardan biridir”.² Yuqorida aytganimizdek shaffof jamiyat qurish va uning kamchiliklarini yo’q qilish va qandayin bundayin jamiyat qurish haqida berilgan eng yirik va mukammal bir asarlar qatoriga kiradigan kitoblarimizdan biri bu - “Fozil odamlar shahri”. Bu asar bizning buyuk vatandoshimiz, Sharq madaniyatida “Muallimi soniy” (Ikkinchi muallim), Yevropada esa Sharq Aristoteli kabi nomlar bilan mashhur bo’lgan Abu Nasr Farobiyga tegishlidir. U fuqarolik jamiyatini qurishda to’g’anoq bo’ladigan muommolardan biri bu - korrupsiyadir deb qay etgan edi. Bundayin ancha yillardan beri an’anaga aylanib kelayotgan va jamiyatning ko’pchilik insonlari o’ziga bu kasallikni yuqtirib olib, jamiyatimizning o’sishi va iqtisodimiz rivojlanishiga halaqit qilmoqdalar. Jamiyatimiz tanazzuliga olib keluvchi bundayin illat shaxsiy jihatdan boyish va manfaatparastlikni ustun qo’yadi.

Bugun O’zbekiston shu yo’ldan bormoqda. O’zbekiston erkin fuqarolik jamiyatini hamda shaffof jamiyat quushni rejalashtirgan. Bunda o’zgarishlar va taraqqiyotga intilgan jamiyat ideal holatini ifodalab har bir sohada ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlarda ochiqlik va oshkoralikni, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni nazarda tutmoqda. Korrupsiyani oldini olish. Shaffof jamiyatda korrupsiya va adolatsizliklarga o’rin yo’q. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi qat’iy qonunlar, taftish ishlari olib borilmoqda. Xussusan, bu borada O’zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashish masalasida xalqaro huquning umume’tirof etilgan normalariga alohida e’tibor berib, 2008-yida qabul qilingan “Birlashgan Millatlar tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31- oktabr) O’zbekiston Respublikasining qo’shilishi to’g’risidagi “ qonunda o’z aksini topdi.

Keyingi harakatlarning davomi sifatida 2010-yilda O’zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog’ining Istanbul harakat dasturiga qo’shildi.

Bularga qo’shimcha sifatida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari sifatida bir qator muhim normativ – huquqiy hujjatlar, jumladan Budget va Bojxona kodekslari (yangi tahrirda), “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida” gi,

² Yaxshilokov, J . “Milliy g’oya – taraqqiyot strategiyasi”.T; Fan-2017.322 b.



“Ijtimoiy sheriklik to’g’risida” gi, “Davlat jamiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to’g’risida”gi, “Tezkor qidiruv faoliyati to’g’risida” gi, “Elektron hukumat to’g’risida” gi, “Ichki ishlar organlari to’g’risida” gi qonunlar qabul qilindi.

Republikamizda korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy mehanizmi yaratigan holda 2017-yil 3-yanvarda O’zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurshish to’g’risida” gi qonuni qabul qilindi. Qonundan ko’zlangan maqsad albatta, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyayev O’zbekiton Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishih tantanali marasomiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shma mjlisidagi “Erkin va obod, demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etamiz” mavzusidagi maruzasida “Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo’l qo’ymaslik, jinoyatga jazo, albatta muqarrar ekani to’g’risidagi qonun talablarini amalda ta’minlash bo’yicha qat’iy choralar ko’rishimiz zarur ”³ - deb ta’kidlagan edilar.

Yuqorida qabul qilingan qonunlar, farmonlar va farmoyishlar va shuningdek tuli xil memarandumlarning imzolanishi bu albatta korrupsiyani zaiflashtirish va uni yo’q qilish harakatlari hisoblanadi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish choralari yoki yo’llari sifatida bu misollarni ham keltirishimiz mumkin.

1. Malakali ishchi yoki kadrlarni tanlash - bu albatta malakail va o’z bilim salohiyatiga ega bo’lgan ishchilarning korrupsiya olish ehtimoli kamroq.

2. Hodimarning motivatsiyasi (ish haqi) – hodimlarga berilayotgan ish haqi albatta hodim uchun yetarli ya’nikim u bajarayotgan ishiga qarab to’g’ri va haqqoniy berilmog’i lozim. Hozirgi paytda ko’plab ishchi va hodimlar o’z mansablarini suiste’mol qilmoqdalar qaysiki, asosiy sabab va omil sifatida ish haqi miqdorining kamligini ta’kidlashmoqda.

3. Jazo (obro’, jarimalar) – korrupsya uchun javobgarlik jinoyatchining obro’, mansabidan qat’y nazar berilishi lozim.

³ Mirziyayev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo’limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz”,J-1 – T:,”O’zbekiston” NMIU-2017.141 b.



4. "Halollik vaktsinasi" – korrupsiyaga qarshi kurash insonda bilim, axloq, "immunitet", xulq-atvor, insof, imon-e'tiqod, halollik kabi sifat va hissiyotlarni shakillantirishga qaratilgan maqsadli jarayondir.

Xorazmlik qomusiy olim, buyuk alloma Mahmud az-Zamaxshariy bu haqda shunday degan degan nasihat qilgan edilar "Halol va pokiza kishi doimo hotirjamu tinchlikdadir, birovga hiyonatu yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir"⁴. Hayot, asosan oildan boshlanadi. O'zbek xalqida "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bor. Demak ota- ona pok - halol bo'lsa, farzandi ham shu ruhda kamol topadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishni eng avvalo oiladan bohlash darkor. Bu borada ayollarning roli katta deb hisoblaymiz.⁵ Shuning uchun bizni doimo imon va poklik tark etmasin!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyayev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz", J-1 –T.; "O'zbekiston" NMIU-2017.141 b.
2. Abu-l-Qosim Mahmud Az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. (Sharxlar muallifi va tarj.U.O'ratov)-T., "Kamalak", 1992-80-b.
3. Qobilov.SH.R. Korrupsiyaga qarshi kurash: iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy choralari va yo'llari: Monografiya. –T.: O'zbekiston Res.IIB Akademiyasi 2015.-160 b.
4. Yaxshilokov, J. "Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi". T; Fan-2017.322 b.
5. fayllar.org

⁴ Abu-l-Qosim Mahmud Az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. (Sharxlar muallifi va tarj.U.O'ratov)-T., "Kamalak", 1992-80-b.

⁵ Qobilov.SH.R. Korrupsiyaga qarshi kurash: iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy choralari va yo'llari: Monografiya. – T.: O'zbekiston Res.IIB Akademiyasi 2015.-160 b.